



TO‘QIMACHILIK, TRIKOTAJ, TIKUV BUYUMLARI, MO‘YNALI TOVARLAR VA POYABZALNI SOTISH XUSUSIYATLARI

Muminov Azizbek Yakubaliyevich.

*Farg‘ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan maxsus tenikum o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *To‘qimachilik tovarlari (gazlamalar va nogazlama materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar), trikotaj buyumlar, tikuv tovarlari (kiyim-kechak, ichki kiyimlar, bosh kiyimlar), mo‘ynadan tayyorlangan buyumlar va poyabzal savdo zaliga qo‘yilgungacha savdo oldi tayyorgarligidan o‘tishi kerak.*

Kalit so‘zlar: *chakana savdo, O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari, to‘qimachilik tovarlari, trikotaj buyumlar, tikuv tovarlari, mo‘ynadan tayyorlangan buyumlar va poyabzal buyumlari*

Mamlakatimizda chakana savdoning rivojlanishi bilan bir qatorda xaridorlar tomonidan tovarlarning sifati va assortimentiga hamda ko‘rsatilayotgan savdo xizmatlariga bo‘lgan talabining tobora ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda xaridorlarga turli savdo qoidalari va xususiyatlarini bilib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda bozorlarimizda sotilayotgan kundalik tovarlar ichida kiyim kechak mahsulotlari alohida o‘rin tutadi. To‘qimachilik, trikotaj, tikuv buyumlari, mo‘ynali tovarlar va poyabzal mahsulotlari bilan savdo qilishda qanday savdo qoidalari va talablari mavjudligini ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida 2003-yil 13-fevral, 75-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori e‘lon qilingan va hozirga qadar bir



necha to'ldirishlar va tuzatishlar bilan amalda qo'llanilmoqda. Unga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston Respublikasi hududida chakana savdo bilan shug'ullanish huquqiga egadirlar:

1. Yuridik shaxslar;
2. Qonun hujjatlariga muvofiq, yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar.

Xo'sh, chakana savdo o'zi nima? Chakana savdo — savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda (sonda) naqd pulga yoki bank plastik kartalari (korporativ bank kartasi bundan mustasno) yoxud kontaktsiz onlayn to'lov tizimlari orqali sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirishdir.

Sotish uchun tavsiya qilinayotgan tovarlar assortimenti, ko'rsatilayotgan xizmatlar turlari, shuningdek xizmat ko'rsatish shakli sotuvchining ixtisosi va u o'z faoliyatini ixtisoslashtirishiga muvofiq sotuvchi tomonidan mustaqil belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chakana savdo shoxobchasida bo'lishi shart bo'lgan asosiy oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari ro'yxati belgilanishi mumkin, bunday chakana savdo tarmog'ining joylashishi respublika tumanlari va shaharlari hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi.

To'qimachilik tovarlari (gazlamalar va nogazlama materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar), trikotaj buyumlar, tikuv tovarlari (kiyim-kechak, ichki kiyimlar, bosh kiyimlar), mo'ynadan tayyorlangan buyumlar va poyabzal savdo zaliga qo'yilgungacha savdo oldi tayyorgarligidan o'tishi kerak. Savdo oldi tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi: tovarni o'rovdan olish, sortlarga ajratish va ko'zdan kechirish; tovarning sifatini (tashqi belgilariga ko'ra) hamda tovar va uni tayyorlovchi to'g'risida zarur ma'lumotlar borligini tekshirish; zarurat bo'lganda buyumlarni tozalash va dazmollash hamda mayda tuzatish.

Sotuvga tavsiya etilayotgan tovarlar turlari, modellari, o'lchamlari, bo'yiga ko'ra guruhlariga ajratilishi va savdo zaliga qo'yilishi kerak. Savdo xususiyatlarini



hisobga olgan holda savdo zalida xaridorga tanlash va o'ziga kerakli tovarni xarid qilish imkonini beruvchi sotish uchun tavsiya qilinayotgan tovarlarning namunalari qo'yilishi kerak.

Erkaklar, ayollar va bolalarga mo'ljallangan trikotaj, tikuv buyumlari, mo'ynali tovarlar va poyabzal savdo zalida alohida joylashtirilishi kerak.

Gazlamalar turlariga va ular tayyorlangan tolaning xiliga ko'ra, mo'ynali tovarlar mo'ynaning turiga ko'ra guruhlariga ajratiladi.

Gazlamaning har bir namunasiga shuningdek u tayyorlangan tolaning foiz miqdori to'g'risidagi, mo'ynadan yasalgan buyumlarga esa mo'ynaning turi to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinishi kerak.

Tovarlar o'z nomi, artikuli, narxi, o'lchami (kiyim-kechak, ichki kiyimlar va boshqa tikuv buyumlari, poyabzal, bosh kiyimlar uchun) va bo'yi (kiyim-kechak va ichki kiyimlar uchun) ko'rsatilgan holda yorliqlarga ega bo'lishi kerak.

Sotuvchi xaridorga tikuv, ustki trikotaj buyumlar, bosh kiyimlar, mo'ynali tovarlar va poyabzalni kiyib ko'rish uchun sharoitlar yaratishi kerak. Ushbu maqsadda savdo zallari banketka yoki skameykalar, qo'ygichlar o'rnatilgan, kiyim kiyib ko'riladigan oynali xonalar bilan jihozlanishi kerak.

Xaridorga sotishda jun gazlamalar, vatin va boshqa og'ir, hajmli gazlamalarni kiyib ko'rish peshtaxta (stol) erkin holatda yig'ilmasdan turgan gazlamaga qattiq standart metrni qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi. Nozik va yengil gazlamalar xontaxtdan gazlamani metrga tortmasdan erkin qo'yish yo'li bilan qattiq standart metrda o'lchanadi. Gazlamaning barcha turlarini o'lchash, jun gazlamalar va trikotaj polotnolardan tashqari, shuningdek bir tomoniga tamg'ali metall o'lchov lentasi montaj qilingan peshtaxta (stol)ga gazlamani qo'yish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Xaridga qirg'ilgan gazlamani qo'shish, shuningdek gazlamani, agar bezagi buzilgan bo'lsa va tamg'a teskari tomonga qo'yilmagan bo'lsa, parchalarini fabrika yorlig'i va tamg'a (xazli uchlar) bilan sotish taqiqlanadi.



Sotuvni amalga oshirayotgan shaxs gazlama, kiyim-kechak, mo'ynali tovarlar va poyabzalni sotishda xaridorning ishtirokida tovarning sifatini (sirdan ko'zdan kechirish yo'li bilan), o'lcham (soni)ning aniqligini, xarid qiymati to'g'ri hisoblab chiqilganligini tekshiradi.

Gazlama, kiyim-kechak, mo'ynali tovarlar va poyabzal xaridorga o'ralganligi uchun qo'shimcha haq undirilmasdan o'ralgan holda beriladi (alohida polimer plyonkali paketlarga o'rash (joylash) bundan mustasno).

Tovar bilan birgalikda xaridorga tovar cheki beriladi, unda tovar va sotuvchining nomi, sotilgan sana, tovarning artikuli, sorti va narxi ko'rsatiladi, shuningdek sotuvni bevosita amalga oshirilgan shaxsning imzosi qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SHavkat Mirziyoev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir" Toshkent – "O'zbekiston"-2020.
2. "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 2003 yil 13 fevral, 75-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori
3. X.T.Muxiddinov. "Tovarshunoslik" KXK uchun o'quv qo'llanma. Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2010 yil.
4. Akramovna, G. L., Doniyorovich, M. F., Xaliqjonovna, E. O., Yuldashevna, M. D., & Mamasaitovich, Q. M. (2020). The effect of the use of organic fertilizers, sowing legumes on the winter wheat yield and quality. *Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology*, 21(42), 73-79.
5. Dilafruz, M., & Lazizakhon, G. (2017). Seasonal dynamics of the amount of ammonifying bacteria in the soils of Djizzak steppe. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (11-12), 3-8.
6. Гафурова, Л. А., Каримов, А., Махкамова, Д. Ю., & Аблакулов, М. (2016). Актиномицеты в засоленных орошаемых сероземно-луговых почвах Сырдарьинского вилоята (ф/х Галаба баяутского тумана). In *АГРАРНАЯ НАУКА-СЕЛЬСКОМУ ХОЗЯЙСТВУ* (pp. 66-68).



7. Makhkamova, D. Y. (2021). Seasonal variation of ammonifier bacteria in heavy meliorated soils. International scientific and technical journal INNOVATION TECHNICALAND TECHNOLOGY, 2(1), 2181-1067.
8. Makhkamova, D., Nabiyeva, G., Abdushukurova, Z., Iskhakova, S., & Abdujabbarovna, A. (2023). Climate conditions, hydrogeology and meliorative conditions of serozem-grass soils of mirzaabad district, sirdaryo region. In E3S Web of Conferences (Vol. 413, p. 03033). EDP Sciences.
9. Abdullayeva, X. B. Q., Maxkamova, D. Y., & Isxoqova, S. M. (2021). Buxoro viloyati sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarining umumiy fizik xossalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 487-495.
10. Махкамова, Д. Ю. (2017). Актиномицеты в гипсоносных почвах Джизакской степи. In ЛОМОНОСОВ-2017 (pp. 33-34).
11. Sattarov, D., Mahammadiev, S., & Makhkamova, D. (2023). Changes of Nutritive Elements in Soils That Medium-Supplied With Phosphorus, Depending on Fertilizers Used in Cotton Agrocenosis. In BIO Web of Conferences (Vol. 78, p. 02012). EDP Sciences.
12. Yunus, K., Zafarjon, J., Samad, M., Dilafruz, M., Damir, T., & Razzak, O. (2021). Green Manure Crops Effects On Cotton Growth, Development And Productivity At Different Terms. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 8(2), 235-247.
13. Махкамова, Д. Ю., & Абдужалилова, О. Х. (2021). Чўл худуди тупроқларнинг шўрланиши, сизот сувлари ва сифат таркиби. Хоразм маъмун академияси Ахборотномаси.–Хива,–2021, 5.
14. Saidjon, S., Munojat, E., Zamira, A., Olimaxon, E., Dilafruz, M., & Nigora, T. (2020). Degree of humification of cotton, alfalfa and ephemers organs, their effect on the content and composition of soil organic matter. The land, 13, 15.
15. Makhkamova, D. Y., Ergasheva, O. K., & Igamberdieva, D. A. (2019). INFLUENCE OF AUTUMN CHICKEN (CICER ARIETINUM) ON NITROGEN BACTERIA IN OLD IRRIGATED LIGHT SIEROZEM SOILS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 88-91.